



Dilfuza DJALILOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
E-mail: dilfuza.jalilova2024@gmail.com

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, P.Nishonov taqrizi asosida

FRANSUZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI MAQOLLARNING MILLIY- MADANIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqollar badiiy asarlarni mazmunini ochib berishda, uning badiiy – estetik jihatlarini yanada boyitishga xizmat qiladi. Mazkur maqola fransuz va o'zbek tillarida uchraydigan maqollarning milliy- madaniy xususiyatlariga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: Frazeologizmlar, maqollar, tilshunoslik, umumbashariy, komponent, umummilliy.

НАЦИОНАЛЬНО - КУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ПОСЛОВИЦ НА ФРАНЦУЗСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

Пословицы служат для раскрытия содержания художественного произведения, дальнейшего обогащения его художественно – эстетических аспектов. Данная статья посвящена национально-культурным особенностям пословиц, встречающихся во французском и узбекском языках.

Ключевые слова: Фразеологизмы, пословицы, языкознание, общечеловеческие, компонентные, национальные.

NATIONAL-CULTURAL CHARACTERISTICS OF PROVERBS IN FRENCH AND UZBEK

Annotation

Proverbs serve to further enrich the artistic and aesthetic aspects of a work of art while revealing its content. This article is devoted to the national and cultural characteristics of proverbs found in the French and Uzbek languages.

Key words: Phraseologisms, proverbs, linguistics, universal, component, national.

Kirish. Butun dunyo xalqlari aforistik ijodida mavjud bo'lgan maqollar o'sha xalqning urf-odat va an'analarini hamda shu qatlamga mansub umuminsoniy jihatlarini ulug'lab, ibrat qilib ko'rsatish singari xususiyatlari bilan milliy frazeologizmlarga singib ketgan. Shu jumladan fransuz va o'zbek maqollari ham, bir tomondan, bevosita ajdodlarning hayotiy tajribalari, estetik va etik tuyg'ulari, ruhiy holati, ijobiy fazilatlarini mujassamlashtirgan millat hayoti hamda uning taraqqiyot darajasining mahsuli sifatida vujudga kelgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, o'zga xalqlar maqollari boyligi ta'sirida paydo bo'lgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. V.I.Dalning fikricha "Nima xalqqa yetib bormagan bo'lsa, uning yashash tarzi, turmushiga taalluqli bo'lmasa, xalqning fikrini, ko'nglini harakatga keltirmagan bo'lsa, u narsalar maqollarda ham aks etmaydi. Millat, xalq hayotidagi yaxshi bo'lsin, yomon bo'lsin o'zgarishlarning barchasi maqollarda o'z ifodasini topadi" [1]

Sharq maqollari tadqiqotlariga katta hissa qo'shgan maqolshunos olim G.L.Permiyakovning fikricha "Maqollar odatda mantiq qonunlari asosida tuzilgan bo'lib, umumlashtiruvchi mulohazaga ega bo'ladi. Tafakkur qonunlari barcha insoniyat uchun yagona bo'lganligi sababli turli millatlarga xos maqol va matallarning o'xshash bo'lishi tabiiydir" [2]

"Umummilliylik deganda ikki yoki undan ortiq qardosh va noqardosh tillarni elementlari tushuniladi. Ular ma'lum darajada mazmunan va shaklan mos kelishi ma'lum bir manbadan boshlanishi yoki bir tildan boshqa tilga o'zlashtirilmagan holda mustaqil paydo bo'lishi bilan xarakterlanadi",- deb yozadi M.B. Xayrullayev [3]

Umummilliylik xarakteri bir necha tillar o'rtasida bo'lishi mumkin. Masalan: o'zbek tilidagi "Ikki qo'chqorning boshi bir qozonda qaynamas" maqoli A.N.Permiyakovning «Poslovitsi narodov vostoka» [4] kitobining o'zida dunyodagi bir necha millatlarning tilida har xil shaklda 100 ga yaqin turi uchraydi.

Maqol va matallar barcha tillarda insoniyat tomonidan qachonlardir, o'zlariga xos bo'lgan belgilari bilan

xarakterlanuvchi spesifik til birikmalaridir. Maqol va matallarning millat va uning tiliga tegishliligi xususiyatidan frazeologik birliklardagi milliy o'ziga xos bo'lgan belgilari bilan xarakterlanuvchi til birikmalaridir. Ushbu xususiyatlardan frazeologik birliklardagi milliy o'ziga xoslik va ularning umuminsoniyatga (Genes une sumus) xos xususiyatidan esa umumbashariylik mazmuni kelib chiqadi. Natijada butun dunyo xalqlari va millatlarining maqol hamda matallar fondini yaratish mumkin bo'ladi va shu kabi keng qamrovli qiyosiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Fransuz yozuvchisi Stendalning «Intim xatlar» nomli asaridan keltirilgan parchaning tarjimasiga e'tibor berilsa, fransuz va o'zbek tillarida frazeologik birliklarning o'zaro umummilliy xususiyatlarini anglatishini kuzatamiz. "L'ancien proverbe qui dit: "Dis - moi qui tu hantes, je te dirai qui tu es" est très juste et d'être médité et bien compris". Qadimgi «Do'stingni kimligini aytasang, sening kimligingni avtaman» maqoliga juda ham to'g'ri keladi. Ba'zi tadqiqotlarga e'tibor berilsa, umumbashariylik «O'zlashtirma so'z yoki ibora» bilan chalkashtiriladi. Bunga oydinlik kiritish maqsadida M.M.Makovskiy [5] ta'kidlashicha, «Umumbashariylik va o'zlashtirma so'zlar orasidagi farq ularning o'rganilishiga bog'liq hodisadir: vertikal holatda tahlil qilinsa shakllanish, rivojlanish usullaridan biri «o'zlashtirmalar»dir, ya'ni bir tildan boshqa tilga har xil muhit, voqea-hodisa ta'sirida ko'chib o'tish, o'zlashtirilish hodisasidir».

V.V.Akulenkoning ta'kidlashicha: «Tillar frazeologik fondining umumbashariylashtirishini frazeologik migratsiyaning natijasi sifatida o'rganganda, tildagi leksik tarkibning o'zlashtirma hisobiga umumbashariylashtirish mexanizmining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o'rganish kerak» [6] deb hisoblaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Turli tillar singari fransuz va o'zbek tillarida ham umummilliy frazeologik birliklarni uchratish mumkin:

1	Au besoin on connaît l'ami	Do'st og'ir kunda sinaladi
2	Qui creuse la fosse à un autre, y tombe lui-même	Birovga chog'qazisang o'zing yiqilasan
3	Les ennemis de nos ennemis sont nos amis	Dushmanimning dushmani mening do'stim
4	L'union fait la force	Kuch birlikda
5	Deux hommes se racontent bien, deux montanges point	Tog'-tog' bilan uchrashmaydi - odam odam bilan uchrashadi
6	Chagrin partagé, chagrin diminue	Handarding bo'sa, darding yarimta

7	Mieux vaut bon voisin que longue paranté	Uzoqdagi qarindoshdan, yaqindagi qo'shni yaxshi
8	Mieux vaut tard que jamais	Hechdan ko'ra - kech yaxshi
9	Il faut battre le fer quand il est chaud	Temirni qizig'ida bos

Ushbu maqollarda umumiylik faqatgina ikkita til orasida mavjudligi ko'rsatilmoqda. Aslida esa umumiylik holati bir nechta tillar doirasida bo'lishi ham mumkin.

"Dunyo maqollari" Larousse [7] lug'atidan "Effort" - «Harakat» mavzusi bo'yicha umumbashariy maqollarni ko'ramiz. "Cherchez et vous trouverez" - xitoylarda. "Il faut casser la novau pour avoir l'amande", «La victoire aim l'effort» - lotin tilida. «Rien ne vient sans peine, sauf la pauvreté» - fransuzlarda. «C'est avec l'eau des carps que l'on tire l'eau du puits» - hindlarda. «Au fond de tailles sent les mures» - fransuzlarda. «veux tu du perles? Plonge dans le mer» - qurdlarda. «Toqqa chiqmasang o'lonona qayda, jon qiynamasang jonona qayda» o'zbeklarda mavjud bo'lishi va turli tillardagi muqobillarning aynan bir ma'noni anglatishi orqali umummilliy frazeologik birliklar ro'yxati shakllantirilganligini guvohi bo'lmoqdamiz. Shuningdek, o'zbek tilidagi «Ikki qochqorning boshi bir qozonda qaynamas» maqoliga muqobil sifatida, fransuz tilida «Deux chien à un os ne s'accordent pas» yoki «deux moineaux sur un evi ne sont pas longtemps amis» variantlariga to'g'ri keladi va ikkita til o'rtasida umummilliy frazeologik birliklarga misol bo'ladi.

Natijalar va muhokama. Frazeologik birliklarning semantikasida baynalminal elementlarning paydo bo'lishi frazeologik parallelizmning natijasidir. Bu esa birinchi erkin so'z birikmalarining bir xil qayta ko'rib chiqilishiga asoslangan. Frazeologik parallelizmning rivojlanishida toplarning o'rni katta ahamiyatga ega. Har xil tillarda o'zgaruvchan so'z birikmalarini qayta ko'rib chiqish timsoliy taqqoslash, metonimik ko'chish alohida hamda yig'ilgan metaforik yo'llar bilan paydo bo'ladi. Frazeologik birliklarning semantik tarkibida umumiy elementlarning mavjudligi turli tillarda bir qator omillarning mavjudligi bilan izohlanadi Masalan:

a) tillar faoliyatidagi o'xshash moddiy va ijtimoiy sharoitlar;

b) til bilan bog'liq bo'lmagan hamda0 borliqqa xos bo'lgan turli munosabatlar;

c) o'xshashliklarni aniqlash bilan bog'liq bo'lgan tipik assotsiatsiyalar va mantiqiy fikrlash operatsiyalarining umuminsoniy xarakteri;

d) xalqlarning ma'naviy va moddiy hayoti haqidagi asoslarning o'xshashligi va yaqinligining mavjudligi;

Bu faktlar turli tillarda bir xil talqin etilishi mumkin, aynan ular frazeologik timsollarning mos kelishini izohlaydi. Ma'lumki u yoki bu hodisa, tushunchaning xususiyatini turli tillarda har xil sifatlar bilan ifodalaydi. Ko'pchilikka ma'lumki bir tildan o'tuvchi frazeologik birliklar chog'ishtirilayotgan tilda ham topilishi mumkin. Bu tillar orasidagi frazeologik ekvivalentsizlik frazeologizmlarning semantikasiga mos kelishi holatidir.

Frazeologik ekvivalentlikning o'lchami borasida turli nuqtai nazarlar mavjud.

Ba'zi olimlar uchun frazeologik ekvivalentlik o'lchami grammatik va leksik semantik mos kelishi, ya'ni ular yuqori darajada mos keluvchi frazeologik birliklarning ekvivalenti deb tan olsalar, boshqa olimlar esa ekvivalentlarni ikki asosiy guruhga bo'ladi:

Birinchi guruhga shakli va tarkibida o'xshashlik bo'lgan frazeologik birliklar kiradi. Ikkinchi guruhga esa tarkibi o'xshash maqollar kiritilgan.

Frazeologik ekvivalentlikning yuqori daraja ko'rsatkichi faqatgina frazeologik birliklarning leksik tarkibining mosligigina emas, balki frazeologik birlik tarkibiy komponentlarining timsolliligidir.

Ekvivalent va ekvivalent bo'lmagan frazeologik birliklarga bo'linish asosida frazeologik timsolning o'xshashligi va farqi bo'lishi lozim. Frazeologiya semantikasining sezilarli bo'limi bo'lgan timsol frazeologizm semantikasining milliy va baynalminal asosi hisoblanadi. Yuqorida aytib o'tganlardan kelib chiqib shuni ta'kidlash mumkinki, barcha baynalminal frazeologik hodisalar yaratish milliy belgi va sifatlarini o'z ichiga oladi. Boshqa tomondan, milliylikda shu tilning frazeologiyasini farqlovchi, lekin barcha tillarga mos bo'lgan umumiylik mavjud. Shu sababli frazeologyaning umumiy va alohida elementlarini mavjud birikmalardagi dialektik qarama-qarshilik ko'rinishida qabul qilish kerak. Bu birikma o'zaro kirishimlilik va bir-biriga o'tishda ifodalanadi Ma'no jihatidan frazeologik birliklar u yoki bu milliy tilga mansub bo'lishi mumkin, ma'no jihatidan esa u jahon madaniyati va sivilizatsiyasining mulkiga aylanadi.

Daniyaliklarda shunday maqol bor ekan: «Quand il y a de la place dans le coeur, il y en a dans la maison» (Tarjimai: yuragingda joy bo'lsa, uyingda ham joy bo'ladi) va bu o'zbek tilidagi «Ko'ngil keng bo'lsa - joy topiladi» maqoli bilan o'xshash frazeologizm hisoblanadi.

Xulosa. Frazeologik birikmalarining asosiy belgisi - ular komponentlarining semantik jihatdan to'liq va qisman o'zgarishi natijasida frazeologik xarakterga ega bo'lmagan erkin hamda turg'un so'z birikmalaridir. Tahlillarga asoslangan holda frazeologik birikmalarga qanotli so'zlar, iboralar, maqol va matallar (proverbial frazeologizmlar) aforizmlar va tadqiqotimiz obyekti sifatida tanlangan fransuz va o'zbek tilidagi proverbial frazeologizmlarga kiradi.

O'zbek va fransuz hamda boshqa xalqlar aforistik ijodida mavjud bo'lgan maqollar, boshqacha aytganda, shu ikkala xalq maqollari sirasida mavjud bo'lgan va boshqa xalqlarda uchrovchi, umumbashariylikni ko'rsatuvchi proverbial frazeologizmlar mavjudki, u qatlamga mansub maqollar o'zlarida umuminsoniy jihatlarni ulug'lashi va ibrat qilib ko'rsatishi kabi xususiyatlari bilan milliy proverbial frazeologizmlarga singib ketgan. Xalq maqollari doirasidagi bu qatlam, bir tomondan, bevosita shu xalqlar hayoti, taraqqiyot darajasining mahsuli sifatida vujudga kelgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, o'zga xalqlar maqollari boyligi ta'sirida paydo bo'lgan. Ushbu tarzda frazeologik birliklarni umummilliy frazeologizmlar deb ataymiz. Frazeologiyadagi milliy-madaniy xususiyatlarning har biri millat vakillarining fe'l-atvori, tashqi qiyofasi, yashash tarzini ifodalaydi. Frazeologizmlarning milliylik belgilari urf-odatlar, kiyim-kechaklar, uy-joy nomlarining tarixiy aforizmlarda qo'llanilishi hamda mazkur xususiyatlar fransuz va o'zbek tilli maqollarida yorqin ifodalanganligini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, maqollar xalq merosidir. Ularda o'sha xalqning barcha o'y-fikrlari, dunyoqarashi, turmush tarzi, fe'l-atvori va e'tiqodi ask etadi Har bir millat o'ziga xos tavsilotlariga ega ekan bu ularning maqollariga nam ta'sir etmay qolmaydi. Hatto maqollardagi mavzular o'xshash bo'lsa-da, ulardagi obrazlar takrorlanmasligi bilan ajralib turadi. Aynan ana shu tasvirlar maqollardagi milliy bo'yqodorlikni ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Даль В.И. «Сокровищница народной мудрости». Даль.В.И. «Пословицы русского народа» - М:1957. -С. 3
2. Пермьяков А.Н. «Избранные пословицы и поговорки народов востока». -М:1958.-С. 376
3. Stendal. Lettres intimes. Paris: 1894. – P 48.
4. Пермьяков А.Н. «Пословицы народов востока» - М: 1979.
5. Хайруллаев М.Б. Интернациональная терминология в татарском языке. - М: 1975. -С. 9-11
6. Маковский М.М. К проблеме так называемой интернациональной лексики. Вопросы языкознания. – М: 1974. -С. 45
7. Larousse "Les proverbes du monde". Paris: Larousse-Bordas. 1998
8. Fransuzcha-o'zbekcha-ruscha proverbial frazeologik lug'at.2012
9. Stylistique du francais moderne. 2004.